



AJER
AKADEMIC JOURNAL OF
EDUCATIONAL RESEARCH

ISSUE 5

**AKADEMIC JOURNAL
OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL**

October 2024

WWW.AJERUZ.COM



International Scientific Journal
AKADEMIC JOURNAL OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
October 2024

Tashkent 2024

**SAMARQAND, JIZZAX, NAVOIY VILOYATLARIDA TERI LEYSHMANIOZI
QO‘ZG‘ATUVCHI TURLARINING KLINIK VA GENETIK TAHLILI**

Sh.E.Tolibova, X.G‘.Sattarova

Samarqanda davlat tibbiyot universiteti

shahlodadajon@gmail.com

Аннотация: В статье проанализировано генетическое и эпидемиологическое распространение возбудителей лейшманиозов, обнаруженных в очагах кожного лейшманиоза (ТЛ) центральных регионов Узбекистана, и зависимость видов лейшманиозов от клинических симптомов вызванного ими поражения. По его словам, Джизакская, Самаркандская и Навоийская области являются эндемичными очагами по антропонозным и зоонозным возбудителям кожного лейшманиоза, а в результате молекулярно-биологического анализа подтверждены оба типа возбудителей кожного лейшманиоза *Leishmania tropica* и *Leishmania major*. Среди них научные анализы по дифференциации последовательности ДНК антропонозного возбудителя кожного лейшманиоза *Leishmania tropica* и зоонозного возбудителя кожного лейшманиоза *Leishmania major* в эндемичных очагах лейшманиоза в различных регионах [4].

Ключевые слова: *Leishmania tropica*, *Leishmania major*, кожный лейшманиоз, ДНК, нуклеотид, антропоноз, зооноз.

Annotation: In this article, the genetic and epidemiological distribution of leishmaniasis agents found in the foci of cutaneous leishmaniasis (TL) in the central regions of Uzbekistan and the dependence of leishmania species on the clinical symptoms of the lesions caused by them are analyzed. According to him, Jizzakh, Samarkand and Navoi regions are endemic foci for anthroponotic and zoonotic cutaneous leishmaniasis agents, and both types of cutaneous leishmaniasis agents *Leishmania tropica* and *Leishmania major* were confirmed as a result of molecular biological analysis. Among them, scientific analyzes on the differentiation of the DNA sequence of the anthroponous cutaneous leishmaniasis agent *Leishmania tropica* and the zoonotic cutaneous leishmaniasis agent *Leishmania major* in the endemic foci of leishmaniasis in different regions [4].

Key words: *Leishmania tropica*, *Leishmania major*, cutaneous leishmaniasis, DNA, nucleotide, anthroponosis, zoonosis.

Dolzarbliigi. Leyshmaniozga dunyoning 98 mamlakati endemik bo‘lib, 350 millionga yaqin odam leyshmanioz bilan kasallanish xavfi bo‘lgan hududlarda yashaydi. JSST ma‘lumotlariga ko‘ra, hozirda dunyo bo‘ylab 14 million odam leyshmanioz bilan kasallangan bo‘lib, har yili 2 millionga yaqin yangi kasallanish holatlari kuzatiladi.

Leyshmaniozlarning teri leyshmaniozi shakli eng keng tarqalgan bo‘lib, 95% ga holatda Amerika, O‘rta er dengizi havzasi, Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo (eng ko‘p kasallanish O‘zbekiston va Turkmanistonda qayd etilgan) mamlakatlarida kuzatiladi.

O‘zbekistonning markaziy viloyatlari leishmaniozlarning teri leishmaniozi uchun endemik hududdir. Samarqand, Jizzax va Navoiy viloyatlarida teri leishmaniozi qo‘zg‘atuvchilarining har ikkila turini *L.tropica* va *L.majorning* uchratish mumkin [1,2].

O‘zbekistonning shahar va qishloq joylarida TL qo‘zg‘atuvchilarining tarqalishi haqida so‘nggi epidemiologik ma‘lumotlarga ko‘ra oshganligi aniqlangan. Ushbu tadqiqotda biz O‘zbekistonning turli shahar va qishloq joylarida TL ni keltirib chiqaradigan *leishmaniya* turlarini aniqladik. Ushbu kasallik mamlakatning turli hududlarida farqlanuvchi klinik ko‘rinishli bo‘ladi, lekin eng keng tarqalgan shaklda, teri shikastlanishini keltirib chiqadigan shaklidir [3]. Leishmanioz turlari tomonidan qo‘zg‘atiladigan yaralar nafaqat klinik belgilari, balki kechishi bilan ham farqlanadi. Yaralarning klinik kechishi tananing turli turli sohalarida uchrashiga ham bog‘liqdir. Bu esa davolash davomiyligini belgilashda muhimdir.

Maqsad. Teri leishmaniozi qo‘zg‘atuvchilari turlarining O‘zbekistonning turli endemik hududlarida uchrashini tasdiqlash maqsadida teri leishmaniozi yaralaridan olingan surtmalarni genetik jihatdan tahlil qilish hamda leishmaniya turlarining teridagi leishmanioz yaralari klinik belgilarga bo‘g‘liqligini aniqlash.

Material va metodlar. Teri leishmaniozi qo‘zg‘atuvchilarining turlari bo‘yicha olib borilgan molekulyar biologik va genetik natijalarni tahlil qilish va leishmaniya turlarining epidemiologik getrogenligini bo‘yicha amaliy tadqiqotlar ko‘rib chiqildi. Teri leishmaniozi mavjud bemorlardan olingan surtmalar mikroskopik usulda tekshirildi. Leishmanioz ekanligi tasdiqlangan surtmalardan DNK ekstraksiyasi usulida ajratilgan DNK namunalari PZR (polemiraza zanjir reaksiyasi) usuli yordamida tekshirildi.

Olingan natijalar va ularning muhokamasi. Izalanishlar natijasi shuni ko‘rsatdiki, SamDTU huzuridagi L.M.Isayev nomidagi MVYPK ITI ning klinik laboratoriyasiga Samarqand, Jizzax va Navoiy viloyatlarining teri leishmaniozlari bo‘yicha endemik hisoblangan hududlaridan tashrif buyurgan 54 nafar bemorlardan 44 nafarida leishmanioz tasdiqlandi va leishmanioz yaralarining klinik jihatdan farqlanishi aniqlandi. Unga ko‘ra 15 (34%) nafar bemorlarda yaraning o‘lchami 2sm gacha, 17(39%) nafarida 5sm gacha, qolgan 12 (27,7%) bemorda 5sm dan katta hamda bir joyda ikkita-uchtagacha edi. Bemorlarning 29 (66%) tasida yaralar qo‘l sohasida, 7 (16%) nafar bemorda yaralar yuz sohasida, 7(16%) nafar bemorda oyoq sohasida 1(2,2) nafar bemorda esa kurak sohasida edi. Teridan olingan surtmalar mikroskopik usulda tekshirilib, leishmanioz ekanligi tasdiqlangan namunalar molekulyar genetik usulda jihatdan tahlil qilinganda 35 (79,5%) nafar bemorda *L.tropica* va 9 (20,5%) nafar bemorda esa *L. major* mavjudligi aniqlandi.

Xulosalar: Ushbu tadqiqotda shuni aniqladikki, O‘zbekistonning 3 ta viloyatidan to‘plangan namunalar asosida amalga oshirilgan molekulyar genetik tadqiqotlar

natiasida *L.tropica* ning keng tarqalgan. Tahlil natijalariga ko'ra *L.tropica* bilan zararlangan bemorlardagi yaralar klinik belgilari va kechishiga ko'ra *L. major* lar tomonidan qo'zg'atiladigan yaralarda farq qiladi. Antroponoz teri leishmaniozi O'zbekistonning markaziy viloyatlarida dominant tur sifatida qayd etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Г.Х.Усаров, В.С.Турицин, Ш.Х. Келдиёров, Х.Г. Саттарова. Ўзбекистоннинг тери лейшманиёзи ўчоқларида москитлар (Diptera: Phlebotomina) фаунаси ва унинг эпидемиологик аҳамияти. Вестник Хорезмской академии Маъмуна.–2022–91-7/1,-106 бет.

2. Сувонкулов У.Т., Абдиев Т.А., Ачилова О.Д., Усаров Г.Х. Современная характеристика природного очага зоонозного кожного лейшманиоза в Мубарекском районе Кашкадарьинской области Узбекистана. «Инфекция, иммунитет и фармакология» научно-практический журнал. 5/2019.

3. Usarov G. Kh., Sattarova H. G., Kim O.V., Murtazoeva N.K., Xalimova S.A. Species Composition and Population of Mosquitoes in the Scenes of Curmal Leishmaniasis in Uzbekistan. International Journal of Genetic Engineering p-ISSN: 2167-7239 e-ISSN: 2167-7220. 2023; 11(3): 35-36. (03.00.00 № 11).

4. Usarov G.X., Turitsin V.S., Sattarova X.G., Sádlová J., Mustanov J., Saura A., Yurchenko V. Phlebotomine sand fy (Diptera: Phlebotominae) diversity in the foci of cutaneous leishmaniasis in the Surxondaryo Region of Uzbekistan:50 years on. Parasitology Research (2024) 123:170. Published online: 25 March 2024. 170-175.

5. Усаров Г.Х., Турицин В.С. Видовой состав москитов (diptera: phlebotominae) в очагах кожного лейшманиоза в Джизакской области. Биология ва тиббиёт муаммолари. -408-410 betlar, 2023-yil.



AKADEMIC JOURNAL OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
international scientific journal
5-son

Nashr qilingan sana: 25.10.2024.
Shrift: "Times New Roman".

“ACADEMIC JOURNAL” MCHJ

Manzil: 700096, Toshkent shahri, Chilozor tumani, Bog‘iston ko‘chasi, 116/6.
www.ajeruz.com, info@ajeruz.com, +998950457172